
TUMANIMIZDAGI SAYYOR QABULDA FUQAROLARNING IJTIMOYIY YO'NALISHDAGI MUROJAATLARI KO'RIB CHIQUILDI



Tumanimizdagi sayyor qabulda fuqarolarning ijtimoiy yo'nalishdagi murojaatlari ko'rib chiqildi

So'x tumanida ijtimoiy himoya milliy agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Abdunazar Salimovning fuqarolar uchun sayyor qabuli o'tkazildi.

Tumanning Yangiariq mahallasida tashkillangan qabul davomida 14 nafar murojaatchining ijtimoiy yo'nalishlardagi masalalari mutaxassislar ishtirokida ko'rib chiqildi. E'tiborlisi, murojaatlarning 5 tasiga shu yerning o'zida ijobiy yechim topilgan bo'lsa, qo'shimcha o'rganish talab qilingan murojaatlar ijrosi uchun mas'ullar belgilandi. Shuningdek, aholi muammolarini o'rganish, ochiq muloqot orqali fuqarolarni eshitish va ularning qalbiga kirib borish, mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish yuzasidan dolzarb vazifalar belgilab olindi.

Sayyor qabul yakunida muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan ijtimoiy himoya tizimida olib borilayotgan insonparvar islohotlar va buning samaralari xususida so'z yuritildi. Ta'kidlandiki, aholi murojaatlari bilan ishlash, fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishda sayyor qabullarning ahamiyati katta bo'lib, bu amaliyot kutilganidek ijobiy samara bermoqda.









[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-29 16:31:41